

ARAB TILIDA SIFATLAR TALQINI MASALASI

Nizomjon Qodirqulov,

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Arab tilida sifat soʻz turkumi juda koʻplab olimlar tomonidan oʻrganilgan va tadqiq etilgan. Predmetning belgisini bildiruvchi bu soʻz turkumi arab tilida asosan uch undosh oʻzakli soʻzlardan iborat boʻladi. Sifatlar ham otlar kabi muzakkar va muannas jinslarga, birlik, ikkilik, koʻplik sonlarga egadir. Sifatdagi birlik, ikkilik sonlarning hosil boʻlish usuli otlardan farq qilmaydi. Sifatning koʻplik shakli odatda u odamlarning belgisini bildirib kelganida ishlatiladi. Ushbu maqolada arab tilidagi sifatlar vazni va mazmuniga, ularning nomlanishi va turlariga diqqat qaratilgan.

Kalit soʻzlar: arab tili, sifatlar, vaznlar, mazmunlar, turkumlar.

Аннотация. В арабском языке прилагательные изучались и исследовались многими учеными. Эта часть речи, обозначающая признак предмета, в арабском языке в основном состоит из слов с тремя согласными корнями. Прилагательные, как и существительные, имеют мужской и аналогичный роды, единичные, двоичные и множественные числа. Способ образования единичных и двоичных числительных в прилагательных не отличается от существительных. Форма множественного числа прилагательного обычно используется, когда оно обозначает признак людей. В данной статье основное внимание уделяется весу и содержанию прилагательных в арабском языке, их наименованию и видам.

Ключевые слова: арабский язык, прилагательные, размеры, содержания, категории.

Abstract. Adjectives in the Arabic language have been studied and researched by many scholars. This part of speech denoting the sign of an object in Arabic consists mainly of words with three consonant roots. Adjectives, like nouns, have masculine and feminine genres, singular, binary, and plural numbers. The formation of singular and binary numerals in adjectives does not differ from nouns. The plural form of an adjective is usually used when it denotes a characteristic of people. This article focuses on the weight and content of adjectives in Arabic, their naming and types.

Keywords: Arabic language, adjectives, meters, meanings, categories.

Kirish. Arab tili grammatikasi bilibdonlari, tilshunos olimlarimiz N.Ibrohimov va M.Yusupovlar arab tilidagi sifatlarning 20 dan ortiq vazni mavjudligini va ulardan quyidagi oʻntasi eng koʻp uchraydigan vaznlar ekanligini koʻrsatib oʻtishgan:

	Vaznlar		Misollar
	Mz	Mn	
1	فَاعِلٌ	فَاعِلَةٌ	حامض-حامضة بَارِدٌ-بَارِدَةٌ
2.	فَعِيلٌ	فَعِيلَةٌ	طويل-طويلة كبير-كبيرة
3	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	مر-مررة صلب-صلبة
4	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	خشن-خشنة تعب-تعبة
5	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	بخس-بخسة صعب-صعبة
6	فَعْلٌ	فَعْلَةٌ	حسن-حسنة
7	فِعْلٌ	فِعْلَةٌ	لين-لينة جيد-جيدة
8	فَعُولٌ	فَعُولٌ	جسور-جسور
9	أَفْعَلٌ	أَفْعَاءٌ	أعرج-عرجاء أبيض-بيضاء
10	فَعْلَانٌ	فَعْلَى	عطشان-عطشى ظمان-ظمنى

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, فَعُولٌ vaznidagi sifat muzakkar va muannas jinsda oʻzgarmaydi.

Bu vaznlar ichida eng ko‘p uchraydigani فَعِيلٌ va فَعِلٌ vaznlaridir. Qolganlari nisbatan kamroq uchraydi.

Bularning ichida أَفْعُلٌ (mn. فَعْلَاءٌ) vazni tanvin qo‘shimchasini qabul qilmaydi. Bu vazndagi sifatlar asosan rangni va jismoniy xususiyatni ifodalovchi sifatlardir. Masalan:

أَحْضَرُ -- خَضْرَاءٌ -- zangori,

أَحْمَرُ -- حَمْرَاءٌ -- qizil,

أَهْدَبُ -- هَدْبَاءٌ -- uzun kiprikli,

أَشْهَلُ -- شَهْلَاءٌ -- ko‘kko‘z.

Bu sifatlarning ko‘pligi siniq ko‘plik vaznidadir.

Adabiyotlar tahlili. Arab tilida sifat masalasi qadimiy va zamonaviy manbalarda keng yoritilgan bo‘lib, ayniqsa Ibn Foris va Ibn Manzur asarlarida “sifat”, “vasf” tushunchalarining lug‘aviy hamda istilohiy talqinlari chuqur tahlil qilingan. Ibn Ya‘ish va Ibn al-Hojib tomonidan sifatning grammatik xususiyatlari, uning gapdagi vazifasi va moslashuv qonuniyatlari ilmiy asosda izohlangan. Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan Ibrohimov va Yusupovlar esa arab tilidagi sifat vaznlari, ularning qo‘llanish chastotasi va morfologik xususiyatlarini tizimli ravishda bayon etgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda sifatning nazariy jihatlarini keng yoritilgan bo‘lsa-da, uning funksional-semantik talqini va zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o‘rganilishi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda sistemaviy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Arab tilidagi sifatlarning vazni, semantik xususiyatlari va grammatik funksiyalari klassik manbalar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, misollar asosida nazariy qoidalar amaliy jihatdan izohlanib, umumlashtirilgan ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. Qadimiy arab lug‘atlarida sifatning uchlik fe‘ldan (sinf sifatida) olinganligi ko‘rsatilgan. Ibni Foris aytadiki: “Vāv, šād va fā, bir o‘zakdir, va uning ma‘nosi “bir narsani ziynatlash” hisoblanadi. Masalan, ووصفته أصفه وصفا (vasaftuhu, asifuhu vasfan) va sifat – bir narsaning lozim belgisidir”.

Ibn Manzur sifatni tanishtirishda shunday deydi: “Bir narsani vasf qilish bu – o‘sha narsani undagi narsa ila tanishtirish va vasflashda mubolag‘a qilishdir”.

Istilohiy jihatdan esa, nahv ulamolari uchta iste‘lohni qo‘llaydilar, bular “na‘t, vasf, sifat” dir. Ibn Ya‘ish shuning uchun: “Sifat va na‘t – bir narsadir, ba‘zi nahv olimlari na‘t so‘zini bir narsani ziynatlashda qo‘llanadi deydi, masalan: “uzun”, “qisqa” kabi. Sifat so‘zi esa fe‘llarga oid so‘zlarga qo‘llanadi, masalan: “uruvchi”, “chiquvchi” kabi – deb aytgan”.

Boshqa nahv olimlari esa, Na‘t so‘zi bu – Kufiylarning, sifat esa – Basraliklarning iste‘lohidir, – deydi.

Zamaxshariy aytadiki: Sifat bu – ma‘lum bir zotning ba‘zi holatlariga dalolat qiluvchi ismdir. Ibn Ya‘ish sifatni keng ta‘riflab, aytadiki: “Sifat bu – mavsuf (sifatlanmish)ning

e'robi (kelishigi)ga uni bezaklab va u haqidagi ma'noni yoki uning (mavsufning) sababi orqali mavjud bo'lgan narsa haqidagi ma'noni zikr qilish bilan uni (mavsufni) xoslab unga (mavsufga) ergashgan lafzdir. O'sha (mavsuf yoki u sababli mavjud bo'lgan narsa haqidagi) ma'no – (ularning) zotidagi lozim ko'rinishdir". Ibn Hojib aytadiki, "Sifat umumiy va maxsus sifatida beriladi, ummumiylikdan murod tavsiflovchi ma'noga ega har bir so'z tobe so'zni ergashtirib keladi va u unga xabar (kesim) bo'ladi".

Na't (sifat) o'zining hokim bo'lakdagi mutlaq ma'noga dalolat qiluvchi tobe' bo'lakdir. Uning foydasi esa nakra (noaniq holat)da taxsis (xoslaydi) va ma'rifa (aniq holat)da tavzih (aniqlaydi)dir. Bu qoidani tahlil qiladigan bo'lsak, na't (sifat) holat, kelishik, son, jins kategoriyalarida bir-biri bilan moslashuvchi beshta gap bo'laklaridan biridir. Na't (sifat) o'zi aniqlab kelayotgan so'zni sifatlab keladi. Na'tning xos jihatlaridan biri aniq holatda kelishi hisoblanadi, ya'ni o'zi aniqlab kelayotgan so'z aniq holatda bo'lsa, sifat ham sifatlanmishga moslashib aniq holatda keladi. Noaniq holatda bo'lsa, na't (sifat) ham noaniq holatda turadi. Masalan, جاءني رجل عالم (oldimga olim odam keldi) ya'ni bu yerda – عالم sifat bo'lib, kishini aniqlab kelmoqda. Aniqlanmish bo'lib kelayotgan so'z (رجل) noaniq holatda bo'lgani uchun sifat ham noaniq holatda (عالم) kelmoqda. Ikkinchi xususiyati esa, sifatlanmish aniq holatda bo'lgani uchun sifat ham aniq holatda kelmoqda. Masalan, جاءني زيد التاجر – (oldimga savdogar Zayd keldi). Mazkur jumlada sifatlanmish atoqli ot bo'lgani uchun al-artikl olmasada aniq holatda hisoblanadi, shu qoidaga binoan "savdogar" ma'nosini beruvchi aniqlovchi aniq holatda turibdi. Shu o'rinda yana bir izoh keltirsak, agar aniqlanmish (زيد) dan ikki kishini nomini ifodalayotgan bo'lsa, aniqlovchi (التاجر) vazifasidagi so'zdan "bir Zayd" ekanligi ma'lum bo'ladi.

Gohida na't (sifat) sof maqtov yoki sof mazammat uchun yoki sof ta'kid uchun keladi. Masalan: sof maqtov uchun بسم الله الرحمن الرحيم bu yerda راحمان الرحيم sof maqtov uchun. Va اعوذ بالله من الشيطان الرجيم sof mazammat(ayblash) uchun. Bu yerda الشيطان الرجيم sof mazammat(ayblash) uchundir. esa sof ta'kid uchundir.

Mushtaq (yasama) ism ham g'ayri Mushtaq(tub) ism ham sifat bo'la oladi. Har qachon g'ayri Mushtaq (tub) ism hamma iste'molda mukammal ma'noni bildirish uchun qo'yilgan bo'lsa (sifat bo'la oladi). Masalan: تميمي va ذومال kabi. Yoki ba'zi iste'molda mukammal ma'noni bildirsa. Masalan: مررت برجل اي رجل (va مررت بزید هذا kabilar. مررت برجل تميمي va ذومال ni sifati bo'lib kelmoqda lekin Mushtaq(yasama) emas. Yoki g'ayri Mushtaq(tub) ism ba'zi iste'molda ma'noni bildirish uchun qo'yilgan bo'lsa. Masalan: مررت برجل اي رجل bu yerda ham اي رجل ni mukammal sifat bo'lib kelmoqda. Ammo Mushtaq (yasama) emas. Yoki بهذا الرجل jumlasini هذا الرجل ni sifati bo'lib kelmoqda. Ammo Mushtaq (yasama) emas. Yoki زيد هذا jumlasini زيد هذا ni sifati bo'lib kelmoqda. Lekin mushtaq (yasama) emas.

Nakra (noaniq) ism, jumlai xabariya (darak gap) bilan mavsuf (sifatlanmish) bo'ladi. Va albatta sifat bo'lgan jumladan mavsuf (sifatlanmish) ga qaytuvchi ya'ni sifat bilan mavsuf (sifatlanmish) ni bog'lovchi bir zamir (olmosh) lozim bo'ladi. Bu qoidani tahlil

qiladigan bo'lsak, jumla nakra (noaniq ism) hukmidadir. "Jumlai xabariya" (darak gap) dedik, chunki "jumlai inshoiya" (darak gapdan boshqa hamma gap) sifat bo'la olmaydi. Nakra (noaniq) ismga sifat bo'ladi dedik. Jumla ma'rifa (aniq) ismga sifat bo'la olmaydi. Masalan: عالم رجل, ابوه عالم, جاءني رجل ابوه عالم (odam) ga qaytmoqda. Agar zamir (olmosh) bo'lmasa jumla ajnabiylikicha qoladi. Ajnabiy bir-biriga bog'lanmagan jumladir. Masalan: جاءني رجل زيد عالم

Mavsuf (sifatlanmish) ning holi bilan ham sifatlanadi. Va mavsuf (sifatlanmish) ning mutaalliqi(bog'langani)ni holi bilan ham sifatlanadi. Masalan: مررت برجل عالم (olim odamning oldidan o'tdim) bunda عالم (olim) so'zi رجل (odam) ni holi va sifatidir. Ikkinchisi, مررت برجل حسن عالم bu misolda mavsuf (sifatlanmish) ning holi emas. Mavsufning mutaalliqini holidir.

Avvalgisi ya'ni mavsuf (sifatlanmish) ning holi bilan bo'lgan na't (sifat) o'z mavsufi (sifatlanmishi) bilan o'n narsada ergashadi. Bu qoidani tahlil qiladigan bo'lsak, E'rob (kelishik) da, ma'rifa (aniqlik) da, va nakralik (noaniqlik) da, birlik, ikkilik va jam' (ko'plik) da, muzakkar (erkak jinsi) va muannaslik (ayol jinsi) da. E'rob (kelishik) da, bosh kelishikda, tushum kelishigida va qaratqich kelishigida ergashadi. Bu uchtadir. Qolgani yettita, hammasi o'n holatdir. To'rttasi belgili va oltitasi belgisizdir.

Ikkinchisi, ya'ni mavsuf (sifatlanmish) ni mutaalliqi (bog'langani) ni holi bilan bo'lgan na't o'z mavsufi (sifatlanmishi) bilan avvalgi besh narsada ergashadi. Bu qoidani tahlil qiladigan bo'lsak, Raf' (bosh kelishik), nasb (tushum kelishigi), jar (qaratqich kelishigi) hamda ta'rif (aniq holat) va tankir (noaniq holat) da ergashadi. Bu besh holatni ikkisi vujudiy (belgili) va uchtasi adamiy (belgisiz) bo'ladi. Agar mavsuf sifat, ma'rifa (aniq holatda) va raf' (bosh kelishikda) bo'lsa bu ikkovi vujudiy (belgili) va qolgan uch holat adamiy (belgisiz) bo'ladi. Ya'ni nasb (tushum kelishigi), jar (qaratqich kelishigi) va tankir (noaniqlik).

Ikkinchi xil vasf (sifat) ni hukmi qolgan beshtada fe'lni hukmi kabidir. Yuqorida aytilgan o'n ko'rinishni oxirgi beshtasi fe'lni amalini qiladi. Masalan:

- 1) مررت برجل قاعد غلامه اي يقعد غلامه
- 2) مررت برجلين قاعد غلامهما اي يقعد غلاماه
- 3) مررت برجل قاعد غلامكم اي يقعد غلامكم.

Ya'ni, fe'lni foili (bajaruvchisi) mufrad (birlikda), tasniya (ikkilikda) yoki jam' (ko'plikda) bo'lsa fe'l mufrad (birlik) bo'lganidek bu yerda sifat ham mufrad (birlik) keltirildi. Agar fe'lni foili (bajaruvchisi) muzakkar yoki muannas bo'lganda fe'l foil (bajaruvchi) ga muzakkar va muannasda ergashgandek vasf ham muzakkar va muannaslikda foilga ergashadi. Masalan:

- 1) مررت بامرأة قاءم ابوها اي يقوم أ
- 2) مررت بامرأة قاءمة جا ريته اي تقوم جاريته
- 3) مررت برجل معمور داره اي يعمر داره
- 4) مررت برجل معمورة داره اي تعمر داره

bu yerda الدار “muannasi g‘ayri haqiqiy” (haqiqiy bo‘lmagan muannas) bo‘lgani uchun muzakkar yoki muannas keltirish ham joizdir.

Shu boisdan قام رجل قاعد غلمانه tarkibi chiroylidir. Mavsufni mutaalliqini holi bilan bo‘lgan vasf (sifat) avvalgi besh jihatdan sifatga ergashishini bildik. Endi qolgan oxirgi beshtada sifat fe‘l kabi amal qila olishi sababidan ushbu قام رجل قاعد غلمانه tarkibi juda chiroylidir. Chunki yuqorida o‘tgan قام رجل يقعد غلمانه kabidir. Ya‘ni fe‘l mufrad (birlikda) va foili (bajaruvchisi) jam‘ (ko‘plikda), bu esa ravodir.

Ushbu قام رجل يقعدون غلمانه tarkibi ham zaifdir. Zero, قام رجل يقعدون (واو) ham zamir (olmosh) hamda foil (bajaruvchi) dir. Uni ochiq ism bilan zikr qilmoqlik ish-harakat bajaruvchisini o‘timlisiga lozim bo‘ladi. Shu jihatdan ushbu tarkib zaifdir.

Ammo قام رجل قعود غلمانه joizdir. Ya‘ni zaif ham hasan ham emas. Chunki قام رجل قعود jam‘i taksir(siniq ko‘plik)dir قام رجل يقعدون ga zaifligida mushobahat (o‘xshash) ligi yo‘qdir. Ammo قام رجل قعود na zaifdir va na yaxshidir.

Zamir (olmosh) mavsuf (sifatlanmish) ham bo‘lmaydi va u bilan sifat ham qilinmaydi. Zamir (olmosh) na sifat bo‘ladi va na mavsuf (sifatlanmish) bo‘ladi. Sahih (to‘g‘ri) so‘z bilan zamir (olmosh) aniq holatdagi so‘zlardandir. U tavzih (belgi) va vasf (sifat)ga hojati yo‘qdir. Shu jihatdan mavsuf (sifatlanmish) bo‘lmaydi. Zamir (olmosh) sifat bo‘la olmaydi. Chunki zamir (olmosh) zotni nafsiga dalolat qiladi. Zotdagi umumiy ma’noga emas. Shu sababdan zamir (olmosh) sifat bo‘la olmaydi.

Mavsuf (sifatlanmish) sifatdan xosroq yoki unga teng bo‘lishi kerak. Bu qoidani tahlil qiladigan bo‘lsak, Mavsuf (sifatlanmish) sifatga qaraganda ma’rifaroq (aniqroq) bo‘lishi kerak. Chunki sifat mavsufdan a’raf va aqvo (aniq va kuchli) bo‘la olmaydi. Chunki sifat mavsuf (sifatlanmish)ni tobe’i (ergashib keluvchisi)dir.

Mavsuf (sifatlanmish) sifatdan ma’rifa (aniq) roq yoki u bilan musoviy ya‘ni bir martabada bo‘lmoqligi sababidan (ال) alif-lom bilan mu’arraf bo‘lgan (aniqlashtirilgan) ism faqat (ال) alif-lom bilan mu’arraf bo‘lgan (aniqlashtirilgan) ism bilan mavsuf (sifatlanmish) bo‘ladi, yoki (ال) alif-lom bilan izofa bo‘lgan ism bilan mavsuf (sifatlanmish) bo‘ladi. Bu qoidani tahlil qiladigan bo‘lsak, bu narsalarni to‘liq tushunmoq uchun avvalo ma’rifa (aniq so‘z) larni tartibi bilan tanishib chiqaylik.

Ma’rifa (aniq so‘z) larni eng a’raf(aniq)i:

1. rutbada – ضمائر
2. rutbada – علم
3. اسم موصول va اسم إشارة
4. Alif lom bilan معرف
5. Yuqoridagilarni birortasi bilan izofa.

Agar biror ism olmosh bilan izofa bo‘lsa birinchi rutbaga ko‘tariladi. Agar علم bilan izofa bo‘lsa ikkinchi rutbaga ko‘tariladi. Va shunga qiyos علم ni علم bilan izofa qilinsa علم rutbasida bo‘ladi. Shu boisdan علم ni علم bilan sifatlasa bo‘ladi. Masalan, مرتت يزيد صاحب

عمرو Ammo مرتت بزيد صاحبك deb bo'lmaydi. Chunki sifat zamir (olmosh) ga izofa bo'lib, birinchi rutbali bo'ldi. Mavsuf علم esa, ikkinchi rutbadadir.

Xulosa. Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, rutbasi baland sifat bo'la olmaydi. Chunki mavsuf (sifatlanmish) a'raf (aniqroq) va axas (xosroq) yoki musoviy (barobar) bo'lishi kerak dedik. Ya'ni mavsuf (sifatlanmish) sifatdan bir rutba yuqori yoki teng rutbada bo'lishi lozim ekan. Shu sababdan. Zullom (ال li so'z), faqat zullom (ال li so'z) bilan yoki zullom (ال li so'z) bilan muzof bo'lgan ism bilan mavsuf (sifatlanmish) bo'ladi. Masalan جاءني الرجل الفاضل .Alif-lom bilan aniqlashtirilgan ism, alif lom bilan aniqlashtirilgan ism bilan mavsuf (sifatlanmish) bo'lmoqda . جاءني الرجل صاحب الفرس . Alif-lom bilan muzof bo'lgan ism bilan mavsuf (sifatlanmish) bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи 2004. – Б 43.
2. Ahmad ibn Foris bin Zakariyo Abul-Husayn. Mo'jam ul-muqoyis ul-lugat. J.6 11-s.
3. Ibn Manzur al-Ansoriy. Lison ul-arab. J. 2. 100 -s.
4. Rahmatulloh Rasuljon o'g'li. Janoh ut-tolib. – Toshkent. 2004. – B 58.
5. Al-Ma'a al-Dhavomi' fi Sharh Majma' al-Javomi' (1998), s. 117. Sharh al-Kofiya, Ibn al-Hojib, b. 967.
6. Ibn Manzur al-Ansoriy, Lisan al-Arab, jild. 2, b. 100
7. Ibn Yaish, Muvaffaqad-Din Abu al-Baqo' Yaish ibn Ali Sharh al-Fasl, jild. 1, b. 91

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934